

2022



Toshkent tibbiyot  
akademiyasi



O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi

## Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed



Toshkent tibbiyot akademiyasi

[www.tma.uz](http://www.tma.uz)

O'zbekiston  
Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi

[www.ssv.uz](http://www.ssv.uz)

Mazkur to'plamda Toshkent tibbiyot akademiyasining "Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

To'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifatiga muallif(lar) javobgar hisoblanadi.

Toshkent - 2022

### ***Tahrir hay'ati***

Shadmanov Alisher Kayumovich

*Rektor, Tashkiliy qo'mita raisi*

Bobomuratov Turdiqul Akramovich

*Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha prorektor*

Azizova Feruza Lyutpillaeva

*Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha  
prorektor*

Norqulov Suxrob Doshmurodovich

*Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri*

Xudoyqulova Gulnora Karimovna

*Jamoat salomatligi kafedrasi mudiri*

Alimova Saboxat Gazievna

*Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti*

Umarova Farida Saidikramovna

*Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta  
o'qituvchisi*

Muyassarova Muxabbat

*Jamoat salomatligi kafedrasi katta  
o'qituvchisi*

Muxamaddievn

*Ijtimoiy fanlar kafedrasi  
professori*

Abilov Ural Murodovich

*Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori*

Norkulov Do'smurod Toshpo'latovich

*Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti*

Iskandarov Sherzod Abdug'aniyevich

*Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi  
xodimi*

Nurbayeva Xabiba Botirovna

### ***Moderatorlar***

Alimova Saboxat Gazievna

*Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti*

Nurbayeva Xabiba Botirovna

*Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi  
xodimi*

## **MUSTAQILLIK YILLARDA AJDODLAR MA'NAVIY MEROSSI VA MILLIY QADRIYATLARGA MUNOSABAT**

**A. N. Gulyamova**

TTA Ijtimoiy fanlar kafedrasи oqituvchisi

Dunyoda, xalqni hech shubhasiz, uning ma'naviyati, madaniyatidek tanituvchi, ibrat etuvchi va asrab qoluvchi omil bo'lmasa kerak. Bugun biz iftixor tuyadigan ma'naviyatimiz daholari — ajdodlarimiz sharofati ila boy o'tmish ananalarimizdan, tarix sinovlariga dosh berib, bizgacha yetib kelgan urf-odat va qadriyatlarimizdan har qancha faxrlansak, oz. Istiqlol sharofati bilan qo'lga kiritilgan erkinlik xalqimizga boshqa ne'matlarqatorio'tmish ananalarimiz, milliyqadriyatlarimizni hamqaytarib berdi, shu bilan birga, tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda ananalarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishidagi o'rni va ahamiyati qayta tiklandi.[1].

Quvonarlisi shundaki, ayni vaqtida butunjahon uchun global muammoga aylanib ulgurgan ma'naviy qoloqlik, milliylikni unutish va bu orqali o'zlikni unutish kabi illatlar uch ming yillik urf-odatlarini e'zozlagan bizning xalqimiz uchun yotdir. Istiqlolning ilk yillaridanoq O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yangisini yaratmay turib, eskisini buzmaslik" tamoyilini ilgarisurdi. Shuning natijasino'laroq, O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy yangilash va rivojlantirishning o'z yo'lini belgilanib, to'rt asosiy negizi ko'rsatib o'tilgan edi:

- umuminsoniy qadriyatlargi sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy me'rosini mustahkamlash va rivojlantirish; - insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik. [2]

Ma'naviyati yuksaklikning asosiy ko'rinishlaridan biri — bu o'z tarixini bilmoq, o'tmish ajdodlarni tanimoq, hamisha yodda tutmoqdir. Shu nuqtai nazardan, istiqlolning ilk kunlarida, ya'ni 1991 yilning sentyabrida Toshkent shahri markazida Alisher Navoiy haykali va milliy bog' barpo etildi; 1992 yilda hurfikr shoirimiz Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi nishonlanib, Namanganda muzey, bog' va haykal barpo etildi; buyuk mutasavvuf Bahouddin Naqshband hazratllari tavalludining 675 yilligini nishonlash haqida qaror qabul qilindi. 1993 yilda "Navro'z — umumxalq bayrami" haqida qaror, shuningdek, Ulug'bek, Beruniy, Navoiy kabi allomalarining tavallud topgan kunlari keng nishonlandi. 1996 yil Amir Temur yili deb, e'lon qilindi va shu

yili ulug' sarkarda va bunyodkor bobomiz sharafiga o'tkazilgan xalqaro anjuman hamda tantanalar, joylardagi yuzlab tadbirlar tom ma'noda ma'naviy merosimizga xalqimiz ehtiromining beqiyos namunasi bo'lib qoldi.

2001 yilda Alisher Navoiy nomi bilan yuritiluvchi viloyatda uning nomiga bog' yaratilib, shoirning haykali o'rnilishi ham ma'naviyatimiz olamida katta voqeа bo'ldi. Mustaqillik yillarida tarixiy me'rosga munosabat tubdan o'zgardi. Sho'rolar davrida xurofot deya qoralanib, ta'qiqlangan, xalqimizning nodir durdonalari bo'lган ko'plab asarlar tadqiq etildi va qayta nashr qilindi, shu tariqa ular xalqimizning chinakam mulkiga aylantirildi.

Ta'kidlash joizki, tarixiy sanalarga ham munosabat o'zgardi. Jumladan, 1991-yil "Alisher Navoiy yili", 1994-yil "Mirzo Ulug'bek yili", 1996-yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi. Bahouddin Naqshband (1993), Feruz (1994), Imom Buxoriy (1998), Ahmad Farg'oniy (1998), Jaloliddin Manguberdi (1999) 800 yillik, Ajiniyoz Qo'ziboy o'g'li (1999), Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Moturidiy (2000), Abduxoliq G'ijduvoniy (2003), Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy (2004), Oybek (2005), Abdulla Qahhor (2007), Muhammadrizo Ogahiy, Hamid Olimjon (2009) va boshqa buyuk shaxslarning tavallud to'ylari keng miqyosda nishonlandi.

Qadimiy va hamisha navqiron, ko'hna va boqiy shaharlarimiz Buxoro, Xiva (1997) va Termizning (2000) 2500, Qarshining (2006) 2700, Marg'ilonning (2006) 2000, Samarqandning (2007) 2750, Toshkentning (2009) 2200 yillik yubileylar o'tkazildi. "Alpomish" dostonining (1999) 1000, "Avesto" kitobining (2001) 2700 yilligini chinakam bayram sifatida tantana qilindi. Quvonarlisi shundaki, muqaddas dinimiz — islom diniga e'tiqod erki yana xalqimizga qaytarildi. Zero, ma'naviyatimizni ota-bobolirimizning dini bo'l mish Islom dinisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Istiqlol davrida bu borada ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Diniy ibodatga, urf-udumlargacha, marosimlarga keng yo'lberilishi, masjid-madrasalarning, diniyobidalarning ta'mirlanishi, yangidan qurilishi, muqaddas kitobimiz — Qur'oni Karim tarjimasi, butun dunyoga mashhur ajdodimiz, hadisshunos olim Imom Buxoriyning saralangan 4 jildlik "Hadis"lar majmuasi kabi diniy-ma'rifiy kitoblar bosilib chiqqanligi, O'zbekiston fuqarolarining har yili Haj safariga borishlari, Toshkent Islom universitetining bunyodga kelishi, dunyoga mashhur ulamolar yubileylarining o'tkazib turilishi diniy-ma'naviy qadriyatlarga yangicha munosabatlarning yaqqol natijasidir. [3.]

Mustaqillik, erk va ozodlik singari mo''tabar onlarning qo'lga kiritilishidajonbozlik ko'rsatgan, hatto o'z jonini-da ayamagan yurtdoshlarimiz, ajdodlarimiz xotirasini

abadiylashtirish borasida ham mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirildi, xususan, xalqimizning milliy o'zligini uyg'otish va mustahkamlash yo'lida butun hayyotini bag'ishlagan Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Ubaydulla Xo'jaev singari elimiz ardog'idagi insonlarning nomlarini abadiylashtirish uchun "Qatag'on Qurbonlari xotirasi" muzeyi – O'zbekiston fan tizimidagi ilmiy-ma'riyyiy muassasa O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida" 2001 yil 1 maydag'i farmoni qabul qilindi va shuning asosida Toshkent shahrida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui 2002 yil 31 avgustda barpo etildi. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi YuNESKO tomonidan Konvensiya qabul qilinishi munosabati bilan muqaddam mavjud bo'lgan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro'yxati"ga O'zbekistondan kiritilgan nomoddiy madaniy meros ob'ektlari ("Boysun tumani madaniy muhiti" va "Shashmaqom") "Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxati"ga o'tkazildi. Ushbu ro'yxatga 2009 yilda Katta ashula" va "Navro'z", 2014yili "Askiya — so'zamollik san'ati", 2016yilda "Palov madaniyati va an'analari" kiritildi. Shunday qilib, hozirgi kunda Reprezentativ ro'yxatda O'zbekiston bilan bog'liq 6 ta nomoddiy madaniy meros mavjud. [5.] Milliy o'zligimizning ajralmas qismi hisoblangan Navro'z bayrami sho'rolar davrida ta'qiqqa uchragan edi. 1990 yillar boshlarida Navro'z qayta tiklandi va umumxalq bayrami sifatida keng nishonlana boshladi.

2001 yildan buyon, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi Buxoro mintaqaviy bo'limi hamda bir guruh hunarmandlar va turistik firmalar rahbarlari tashabbusi bilan Buxoro shahrida "Ipak va ziravorlar" an'anaviy festivali tashkil etiladi. Ushbu tadbiriga respublikamizning barcha viloyatlaridan turistik tashkilotlar, hunarmandlar, xorijiy va mahalliy sayyoohlar qatnashadilar. Festival doirasida ipak va ziravorlar savdosi va palov sayllari, milliy o'yinlar, sport musobaqalari va milliy liboslar namoyishi, hunarmandlarning mahorat namoyishlari va turli madaniy tadbirlartashkiletlishiushbufestivalning anana darajasiga ko'tarilishini ta'minladi. Ushbu dalillar mamlakatimizda xalqimiz ma'naviy merosiga bildirilayotganchuqurhurmat va e'tibordandalolat bo'lib, unio'rganish, tadqiq etib, kelajak avlodga yetkazish borasida olib borilayotgan say-harakatlar davlatimizning ma'naviyat sohasiga ustuvor siyosat darajasida qarayotganligini ko'rsatadi.

Shu bois mamlakatimizda bugungi kunda milliy urf-odat va qadriyatlarni asrab avaylash, ularni yosh avlod ongiga singdirish orqali boqiyligini ta'minlash borasidagi islohotlarni ko'rib, dunyo ahli hayratlanayotganligi bejiz emas.

Zero, bizning xalqimiz uchun ma'naviy qadriyatlar hamisha qadrli va komil insonni tarbiyalashda yuksak ahamiyatga ega muhim vosita — ma'naviy ko'prik bo'lib hisoblanadi, kelajak avlodni ana shu ruhda tarbiyalash orqali milliyligimizni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarimizni saqlash va avloddan-avlodga yetkazish, ayniqsa, biz yoshlar uchun doimo eng dolzarb masala bo'lib qoladi.

#### REFERENCES:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1- jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. (siyosiy-falsafiy qirralari). - Toshkent: Akademiya, 2005. – 367 b.
3. Sh.Qahhorova. Global ma'naviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi. Toshkent: Akademiya, 2008. –67 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. /Asarni o'rganish bo'yicha o'quv-ko'rgazmali qo'llanma. T.: Sharq, 1999. 9-b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.T.: O'zbekiston, 1999.12-b
6. <http://m.mfa.uz/uz/press/news>

## CONTENTS MUNDARIJA

- 35.** Gulyamova, A. N. (2022). MUSTAQILLIK YILLARDA AJDODLAR MA'NAVIY MEROSI VA MILLIY QADRIYATLARGA MUNOSABAT. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 128-131.
- 36.** Джураева, М. У. (2022). ВОПРОСЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ АБУ РЕЙХАНА АЛЬ-БЕРУНИ. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 132-135.
- 37.** Джураева, Н. А. (2022). СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ АБУ НАСРА АЛЬ ФАРАБИ И АБУ РЕЙХАНА БЕРУНИ. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 136-138.
- 38.** Ziyaev, F. (2022). QOMUSIY TAFAKKUR SOHIBI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 139-142.
- 39.** Qurbonov, N. N., Allaberganova, S. B., & Karimova, R. P. (2022). ABADIYAT FARZANDI ABU RAYHON BERUNIY. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 143-147.
- 40.** Махамаджанова, М. III. (2022). ВКЛАД АБУ РАЙХАНА АЛЬ-БЕРУНИЙ В ФОРМИРОВАНИЕ МИРОВОЙ НАУКИ. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 148-151.
- 41.** Azizqulov, A. A. (2022). BERUNIYNING "TAFHIM" ASARINING ILMIY AHAMIYATI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 152-155.
- 42.** Saydullaev, A. N. (2022). SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 156-159.
- 43.** Saydullaev, A. N., & Nasrullaev, S. A. (2022). BUYUK SHARQ MUTAFAKKIRLARING BOY MA'NAVIY MEROSI VA ULARNI FARZAND TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 160-162.
- 44.** Миррахимова, С. Ю., & Аскарова, Н. А. (2022). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ В ТРУДАХ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИЙ. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 163-165.
- 45.** Мусаева, Н. Б., & Исламова З. (2022). АБУ РАЙХАН БЕРУНИ. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 166-168.
- 46.** Qurbonov, N. N. (2022). ZILZILALAR VA UNING ASORATLARI BUYUK QOMUSIY OLIM ABU RAYXON BERUNIY TALQINIDA. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 169-172.